

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI

SAIDVALIYEV ULUGBEK ALIMJANOVICH

**GERMANAT VA SILIKAT VISMUT HAMDA PARATELLURIT
KRISTALLARIDA ELASTIK XOSSALARNING ANIZOTROPIYA
QONUNIYATLARI**

01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi

**fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
physical and mathematical sciences**

Saidvaliyev Ulugbek Alimjanovich

Germanat va silikat vismut hamda paratellurit

kristallarida elastik xossalarning anizotropiya qonuniyatlari..... 3

Саидвалиев Улугбек Алимжанович

Закономерности анизотропии упругих свойств

в кристаллах германата и силиката висмута и парателлурита.....23

Saidvaliev Ulugbek

Regularities of anisotropy of elastic properties of bismuth silicate, bismuth

germanate and paratellurite crystals.....43

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....48

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI

SAIDVALIYEV ULUGBEK ALIMJANOVICH

**GERMANAT VA SILIKAT VISMUT HAMDA PARATELLURIT
KRISTALLARIDA ELASTIK XOSSALARNING ANIZOTROPIYA
QONUNIYATLARI**

01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi

**fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2016.1.PhD/FM250 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.inp.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan

Ilmiy maslahatchi: **Axmedjanov Farxad Rashidovich**
fizika-matematika fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Baxramov Sagdulla Abdullaevich**
fizika-matematika fanlari doktori, professor, akademik

Muxtorov Adil Pozilovich
fizika-matematika fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot: **Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Yadro fizikasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Ulug'bek qo'rg'oni, Yadro fizikasi instituti. Tel. (+99871) 289-31-41; faks (+99871) 289-36-65; e-mail: info@inp.uz).

Dissertatsiya bilan Yadro fizikasi institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100214, Toshkent shahri, Ulug'bek qo'rg'oni, YaFI. Tel. (+99871) 289-31-19.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil " ____ " _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil " ____ " _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.Yu. Tashmetov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi f.-m.f.d., professor

O.R. Tojiboyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.PhD,
katta ilmiy xodim

E.M. Tursunov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi
f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. So‘nggi yillarda dunyoda vismut silikat ($\text{Bi}_{12}\text{SiO}_{20}$) va vismut germanat ($\text{Bi}_{12}\text{GeO}_{20}$) va paratellurit (TeO_2) kristallari sanoat, fan va texnikada fizik xususiyatlar va texnologik parametrlarning umumiyliigi bo‘yicha optik akusto-optik va akustoelektron qurilmalarda ishchi muhitlar sifatida katta talabga egadir. Akusto-optika qurilmalarini yaratish uchun paratellurit kristallariga talab ko‘proq bo‘lib, ular sezilarli bo‘lgan yutilish chiziqlarisiz shaffoflikdarajasining keng diapazoniga (0,35–6,0 mkm) ega bo‘lib, suvda deyarli erimaydi. Oddiy va g‘ayrioddiy nurlarning sinish ko‘rsatkichlarining yuqori qiymatlari akustik to‘lqinlarning o‘ziga xos kichik tezliklari bilan birgalikda paratellurit kristallarini akusto-optik sifat koeffitsiyentining g‘ayrioddiy yuqori qiymati bilan ta‘minlaydi. Bu uning boshqa akusto-optik materiallarga nisbatan texnik jihatdan asosiy afzalligini belgilaydi va ularni akusto-optik elektron sozlanuvchi filtrlarda, dispersiyali kechiktirish liniyalari va optik nurlanishni boshqarish uchun akusto-optik o‘zgartirgichlarda faol ishchi muhit sifatida foydalanish imkonini beradi.

Biroq, akusto-optik uskunalarda kristallarning qo‘llanilishi chastotasi diapazonini cheklovchi muhim omillardan biri bo‘lib qayd etilgan kristallardagi akustik to‘lqinlarning so‘nish koeffitsiyentining qiymati va anizotropiyasi hisoblanadi, ular shu kungacha batafsil o‘rganilmagan. Shuning uchun asosiy vazifalardan biri eng kam darajada akustik yo‘qotishlarga erishiladigan kristall tovush o‘tkazgichlarning bunday yo‘nalishlarini aniqlashdir. Umuman olganda, bu kristallarning elastik xossalarning anizotropiyasini o‘rganish chiziqli bo‘lmagan akustika va chiziqli bo‘lmagan optikaning ko‘plab masalalari uchun ham muhim ahamiyatga ega. Fundamental qiziqishdan tashqari bunday tadqiqotlar ushbu kristallarning akusto-optik va golografik qurilmalarda faol ishchi muhit sifatida qo‘llanilishi uchun eng samarali kesimlarini aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega, va shubhasiz, zamonaviy kondensirlangan holat fizikasi uchun ham dolzarb hisoblanadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi materialshunoslik sohasidagi fundamental tadqiqotlarga - yangi materiallarni izlash va ma‘lum bo‘lgan materiallarning xossalarni, shu jumladan mamlakat iqtisodiyotining turli tarmoqlarida qo‘llaniladigan dielektrik va segnetoelektrik kristallarning xossalarni o‘rganishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu fundamental va amaliy tadqiqotlarning yo‘nalishlari ilm-fan va ilmiy hajmdagi ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega va yangi 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ o‘z aksini topgan.

Ushbu dissertatsiya ishida olib borilgan tadqiqotlar, muayyan darajada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni

to'g'risida"gi, 2017 yil 26 maydagi PF-3012-sonli "Qayta tiklanuvchi energiyani yanada rivojlantirish, 2017-2021 yillarda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarida energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida" Farmonlari, 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789-sonli "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori hamda ushbu sohada qabul qilingan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. "Energetika, energotejamkorlik va muqobil energiya manbalari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. So'nggi o'n yilliklarda kondensirlangan holatlar, shu jumladan, lazer kristallarining akustik va akusto-optik xususiyatlarini o'rganishga dunyoning yetakchi olimlari, jumladan rossiyalik (Yu.V.Gulyaev, V.I.Balakshiy, V.B.Voloshinov, I.E. Kuznetsova, V.V. Lemanov va bosh.), amerikalik (R. Truell, B. Chick, C. Elbaum), fransuz (E. D'yelesan va D.Ruaye), belorus (V.N.Beliy, G.V.Kulak va bosh.), o'zbekistonlik (P.K. Xabibullaev, S.Z.Mirzaev, Z.T.Azamatov, D.I.Semenov, F.R.Axmedjanov va bosh.) va boshqa olimlarning bir qator tajribaviy va nazariy ishlari bag'ishlangan.

Masalan, rossiyalik olimlarning ilmiy ishlarida yorug'likning anizotrop difraktsiyasida paratelluritning akusto-optik xossalari va ular asosida polarizatsiya modulyatorlari tadqiqot qilingan; belorusiyalik olimlar tomonidan silikat va germanat vismut kristallarida tovushda yorug'likning Breg difraktsiyasi va akusto-optik o'zaro ta'sirida ulardagi amplituda va faza ta'siri tadqiqot qilingan; fransiyalik olimlar tomonidan turli anizotrop tuzilmalar va kristallarda, shu jumladan silikat va germanat vismut va paratellurit kristallarida akustik to'lqinlarning tarqalishi o'rganilgan, O'zbekiston olimlari tomonidan akustik usullar yordamida kristallar va nanosuyuq tizimlarning akustik va akusto-optik xususiyatlari bo'yicha keng miqyosli tadqiqotlar olib borilgan.

Biroq, elastik xususiyatlar anizotropiyasi va ayniqsa, silikat va germanat vismut va paratellurit kristallarida akustik to'lqinlarning so'nishi anizotropiyasini batafsil o'rganish deyarli amalga oshirilmagan, ularning elastik xossalari oid mavjud ma'lumotlar esa bir-biriga ziddir. Shu bilan birga, kristallarda akustik to'lqinning tarqalish va so'nish tezligi ularning akusto- elektron va akusto-optik qayta ishlash tizimlarida qo'llanilishining texnologik imkoniyatlari bilan funktsional jihatdan bevosita bog'liq. Umuman olganda, akustik to'lqinlarning so'nishi mexanizmlari va elastik xossalarning anizotropiya qonunlari haqida fundamental bilimlarga ega bo'lish, shuningdek, akustik to'lqinlarning tarqalish yo'nalishining o'zgarishi bilan bu xossalarning o'zgarishini prognozlash kondensirlangan holat fizikasining dolzarb masalasi bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti ilmiy

tadqiqot loyihalari doirasida OT-F2-56 “Nodir yerlarning LnF_3 superionli trifluoridlarida issiqlik o‘tkazilishining ichki harakati va to‘lqinli shakli” (2017-2020) mavzusida va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 iyuldagi PF-6260-sonli Farmoniga ko‘ra Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutining ilmiy tadqiqot ishlari dasturi doirasida “Chiziqli bo‘lmagan hodisalar, dielektrik va segnetoelektrik kristallarda elastik, fotoelastik va superion xossalarning faza o‘tishlari va anizotropiyasi” (2021-2024) mavzusida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi silikat vismut, germanat vismut va paratellurit kristallarning elastik xossalari kristallografik yo‘nalish ta‘sirining qonuniyatini aniqlashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

chastotalarning gipertovush diapazonidagi silikat va germanat vismut va paratellurit kristallarida akustik to‘lqinlarning simmetriya o‘qlari bo‘ylab tezligi qiymatlarini va so‘nish koefitsientini eksperimental aniqlash.

paratellurit va silikat va germanat vismut kristallarida yuqori chastotali akustik to‘lqinlarning tezligi va so‘nishi anizotropiyasining qonuniyatini belgilash;

ushbu kristallardagi p‘yezofaol akustik to‘lqinlarning so‘nish koefitsiyenti kattaligiga dielektrik yo‘qotishlarning ta‘sir mexanizmini aniqlash;

silikat va germanat vismut kubik kristallarida mavhum elastik doimiylar bo‘yicha anizotropiya parametrini kiritish va aniqlash;

akustik to‘lqinlarning tezligi va so‘nishining paratellurit kristallarda ularning simmetriya o‘qlaridan tarqalish yo‘nalishining kam darajada og‘ishida o‘zgarishining qonuniyatini aniqlash.

Tadqiqot ob‘yekti bo‘lib paratellurit va silikat va germanat vismut kristallarida akustik to‘lqinlarning tezligi va so‘nish koefitsiyentining anizotropiyasi hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti sifatida paratellurit, silikat va germanat vismut kristallarida yuqori chastotali akustik to‘lqinlarning tarqalish tezligi va so‘nish koefitsiyenti olingan.

Tadqiqot usullari: materiallarda akustik to‘lqinlarning tezlik hamda ularning so‘nish koefitsiyentini akusto-optik va takomillashtirilgan impulsi interferensiya o‘lchash usullari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

birinchi marta silikat vismut, germanat vismut va paratellurit markazlashtirilmagan kristallar uchun kompleks elastik tensorning barcha mustaqil haqiqiy va mavhum komponentlari tajriba yo‘li bilan aniqlangan;

kub strukturali kristallarda akustik to‘lqinlarning so‘nish koefitsiyenti anizotropiya darajasini kristallardagi kristallografik yo‘nalishga bog‘likligini aniqlash imkonini beruvchi mavhum akustik anizotropiya parametri kiritilgan;

piezoelektrik kristallardagi dielektrik yo‘qotishlar anizotropiya xarakterini o‘zgartirmasdan, piezoaktiv akustik to‘lqinlarning so‘nish koefitsiyentlarining anizotropiya darajasini kuchaytirishi ko‘rsatilgan;

paratellurit kristallarida ikkinchi tartibli simmetriya o'qlari bo'ylab va yaqinida akustik to'lqinlarning tezligi va so'nish koeffitsiyenti anizotropiyasi qonuniyati olingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

vismut germanat va vismut silikat kristallarida dielektrik o'lchashlarda qabul qilinishi mumkin bo'lmagan gipertovush chastota diapazonida dielektrik yo'qotishlarni topish uchun piezoaktiv va piezoaktiv bo'lmagan akustik to'lqinlar uchun so'nish koeffitsiyentlarining farqi aniqlangan;

paratellurit kristallarning optimal kesimlarini aniqlash uchun ulardagi ikkinchi darajali simmetriya o'qlardan ularning tarqalish yo'nalishining kichik burchakli og'ishlari uchun akustik to'lqinlarning tezligi va so'nish koeffitsiyentini hisoblash uchun tenglamalar olingan;

vismut germanat, vismut silikat va paratellurit kristallaridagi murakkab elastik tensorning olingan haqiqiy va mavhum komponentlari asosida ma'lumotlar to'plami yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'yilgan vazifalar kristallarda akustik to'lqinlarning tezligi va so'nishini o'lchashning yaxshi sinalgan usullaridan foydalanish, katta hajmdagi tajribaviy natijalar va ularning kondensirlangan holat fizikasining fundamental qonuniyatlari va asosiy tamoyillariga moslashtirilishi, shuningdek olingan natijalarning boshqa mualliflar tomonidan olingan natijalari bilan moslashtirilishi bilan fizik jihatdan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Natijalarning ilmiy ahamiyati markazlashtirilmagan simmetrik kristallar uchun mavhum elastik doimiylarga ko'ra elastik anizotropiya parametri birinchi marta joriy etildi, bu simmetriyaning bir yo'nalishi bo'ylab akustik to'lqinlarning so'nishi ma'lum qiymatlari bo'yicha nafaqat bo'ylama, balki ko'ndalang akustik to'lqinlarning boshqa kristolografik yo'nalishdagi so'nishini hisoblash yo'li bilan aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotlarni olib borish davomida olingan natijalar amaliy nuqtai nazardan, silikat va germanat vismut p'yezoelektrik kubik kristallarda va paratellurit tetragonal kristallarida akustik to'lqinlarning so'nishi anizotropiyasining umumiy tabiatini oldindan aytib berish va ularda akustoelektron va akusto-optik axborotni qayta ishlash qurilmalarida foydalanish uchun eng qulay kesimlarni aniqlash imkoniyatini beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. germanat va silikat vismut va paratellurit kristallarning elastik xossalarning anizotropiya qonuniyatlarini o'rganishda olingan natijalar asosida:

aniqlangan silikat va germanat vismut kubik markazlashtirilmagan simmetrik kristallarining mustaqil haqiqiy va murakkab elastik tenzorning mavhum komponentlari «Namosys Ltd» (Isroil) kompaniyasining NGA1556789-sonli "Optik spektr tahlili uchun fotodiodli massiv bilan birgalikda signalni qayta ishlashni optimallashtirish" loyihasi doirasida foydalanildi (2019–2021) («Namosys Ltd» (Isroil) kompaniyasining 2022 yil 12 iyundagi xati). Natijalarning qo'llanilishi optik

signallarni qayta ishlashning aniqligini oshirish va yo‘qotishlarni 30 dB darajasigacha kamaytirish imkonini yaratgan;

silikat vismut va germanat vismut kristallari uchun mavhum elastik doimiylar bo‘yicha akustik anizotropiyaning aniqlangan omili horijiy tadqiqotchilar tomonidan foydalanilgan (xalqaro ilmiy jurnallarda havolalar: Applied Surface Science 2022, Vol. 575, 151732; Nanomaterials 2022, 12 (22), 4101; Sensors & Transducers. 2021, Vol. 254, Issue 7, p.38-42). Natijalarning qo‘llanilishi silikat vismut asosida yuqori samarali fotokatalitik nanomaterialini olish va lantan gallosilikat kristallarining elastik xossalarini tavsiflash imkonini bergan;

dielektrik yo‘qotishlarning silikat vismut va germanat vismut va paratellurit markazlashtirilmagan simmetrik kristallarda akustik so‘nishlarga qo‘shgan hissasini hisobga olish zarurati horijiy tadqiqotchilar tomonidan qo‘llanilgan (xalqaro jurnallarda havolalar: Applied Surface Science 2022, Vol. 575, 151732; Nanomaterials 2022, 12 (22), 4101; Sensors & Transducers. 2021, Vol. 254, Issue7, p.38-42). Natijalarning qo‘llanilishi silikat vismut asosida yuqori effektiv fotokatalitik nanomaterialini olish va lanthan gallosilikat kristallarining elastik xossalarini tavsiflash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 9 ta xalqaro va respublika anjumanlarida ma’ruza qilingan hamda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarini e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish e’lon qilingan, ulardan Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shulardan, 3 tasi xorijiy jurnallarda.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topadi. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 105 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslanadi, tadqiqotlarning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlari bilan bog‘liqligi aniqlandi, muammoning o‘rganilganlik darajasi ko‘rib chiqildi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari ishlab chiqildi. Tadqiqotning ob‘yekt, predmeti va usullari, ilmiy yangiligi bayon etildi, olingan natijalarning ishonchliligi tasdiqlandi, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berildi, ishning natijalari va aprobatsiya natijalarining qo‘llanilishiga oid ma’lumotlar, shuningdek dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kristallarda akustik to‘lqinlar nazariyasi”** birinchi bobida kristallarda akustik to‘lqinlar nazariyasi va ularning elastik xossalariga p‘yezoelektrik ta’sirining ta’siri sharhi keltirilgan. Kristallarning elastik anizotropiyasiga asoslangan barcha asosiy ta’sirlar ko‘rib chiqilgan. Birinchi bobning alohida bo‘limi dielektrik va segnetoelektrik kristallarga xos bo‘lgan asosiy

soʻnish mexanizmlari boʻyicha adabiyotlarni sharhlashga bagʻishlangan. Ahiyezerning fonon-fononli mexanizmi va nuqtali nuqsonlarining akustik soʻnishga taʻsir mexanizmi batafsil koʻrib chiqilgan. Alohida boʻlim kristallarning elastik xossalari anizotropiyasini xarakteristik tezlik va soʻnish yuzalari boʻyicha tavsiflash nazariyasiga bagʻishlangan.

Koʻrib chiqishdan, germanat va vismut silikat va paratellurit kristallarining elastik xususiyatlari toʻgʻrisida mavjud boʻlgan koʻplab maʼlumotlarga qaramasdan, yuqori chastotali akustik toʻlqinlarning xususiyatlariga yoʻnaltirishga bogʻliq boʻlgan koʻplab masalalar oʻrganilmagan.

Dissertatsiyaning **“Usullar va eksperimental qurilmalar”** ikkinchi bobida anizotrop holatda akustik toʻlqinlarni oʻrganish usullarining umumiy tavsifi berilgan. Kristallarda akusto-optik oʻzaro taʻsirning asosiy qonuniyatlari, xususan, tovushda yorugʻlikning Breg difraksiyasi bobning ikkinchi boʻlimida keltirilgan.

Akustik xususiyatlarni aniqlashning akusto-optik usuli va akusto-optik oʻlchash tizimi bobning uchinchi boʻlimida batafsil koʻrib chiqilgan. Oʻlchashlarni oʻtkazish uchun yorugʻlikning Breg difraksiyasi usuli va 0,4-1,6 GHz chastota oraligʻidagi akustik toʻlqinlarni qoʻzgʻalish tizimidan va tovushda difraktsiyalangan yorugʻlikni roʻyxatdan oʻtkazish tizimidan (toʻlqinlar uzunligi 632,8 nm) iborat akusto-optik qurilmadan foydalanilgan.

Tovushda yorugʻlikning Breg difraksiyasidan foydalanadigan akustik toʻlqinlarning tarqalish xususiyatlarini oʻrganishning akusto-optik usullari θ_B yorugʻlikning Breg difraksiya burchagi V akustik toʻlqinining tarqalish tezligi va uning v chastotasi bilan quyidagi munosabat bilan bogʻlanganligiga asoslanadi:

$$\sin \theta_B = \frac{\lambda_0 \cdot v}{2V} \quad (1)$$

Quvvati boʻyicha soʻnish koeffitsiyenti deb ataluvchi α soʻnish koeffitsiyenti quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\alpha, dB/sm = \frac{1}{x_2 - x_1} 10 \lg \frac{I(x_1)}{I(x_2)} \quad (2)$$

bu yerda $I(x_1)$ va $I(x_2)$ akustik toʻlqinning tarqalish yoʻnalishi boʻylab x_1 va x_2 nuqtalarida mos ravishda difraktsiyalangan yorugʻlikning intensivligi.

Ushbu bobning toʻrtinchi boʻlimi "impulsli interferensiyasi" usuli bilan akustik toʻlqinlarning tezligi va soʻnishini pretsizion aniqlash uchun Villyams Lemb usuli asosida ishlab chiqilgan qurilmaga bagʻishlangan. Qurilmaning oʻziga xos xususiyati maʼlum bir vaqt oraligʻida ochiladigan amplitudali selektor - vaqt boʻyicha oʻtkazish oynasidir. A_1 va A_2 - qoʻshni impulsning amplitudalarini oʻlchash orqali akustik toʻlqinlarning α soʻnish koeffitsiyenti (2) formula yordamida aniqlanadi. Oʻlchash tizimi akustik impulsning ikki seriyasini hosil qilishga ham imkon beradi. Impulsning bu seriyalari qoʻllanilganda ularning umumiy amplitudasi bu impulsni toʻldiruvchi tebranishlar orasidagi fazalar farqiga bogʻliq boʻladi. Signal amplitudalarining interferensiya nollarini kuzatish orqali akustik toʻlqin tezligini aniqlash mumkin:

$$V = 2L \cdot \Delta v \quad (3)$$

bu yerda L - namunaning uzunligi, Δv - qarshi fazali interferentsiyaga mos generatorning ikkita chastotasi o'rtasidagi farq. Shu bilan birga, signalning amplitudali va vaqt bo'yicha tezligini aniqlashning aniqlik darajasi $\sim 0,01\%$ ni tashkil qiladi.

Ikkinchi bobning beshinchi bo'limida o'rganilgan namunalarning umumiy xususiyatlari va tajriba metodikasi ko'rib chiqilgan. Parallelepipedlar ko'rinishidagi namunalar [100], [001] va [110] kristallofizik yo'nalishlar bo'ylab uzun tomoni bilan 1 gradusgacha aniqlik bilan yo'naltirilgan. Parallelepipedning uzun tomoni bo'ylab olingan namunalar o'lchami 1 sm dan 2 sm o'zgargan. Namunalardagi bo'ylama va ko'ndalang akustik to'lqinlar 30 dan 50 MHz gacha shaxsiy chastotalar bilan, mos ravishda, kvartsdan yasalgan p'yezoelektrik o'zgartirgichlar yordamida qo'zg'atilgan.

Dissertatsiyaning **“Silikat vismut va germanat vismut kristallarining elastik xossalari anisotropiyasi”** uchinchi bobi birinchi bo'limida silikat vismut ($\text{Bi}_{12}\text{SiO}_{20}$) va germanat vismutning ($\text{Bi}_{12}\text{GeO}_{20}$) o'rganilgan kristallari tavsiflangan, ular 23-nuqtali simmetriya guruhiga mansub, p'yezoelektrik ta'sirga ega, spektrning ko'zga ko'ringan sohasida shaffof va katta elektromexanik bog'lanish koeffitsiyentiga ega.

Ikkinchi bo'limda **“Silikat vismut kristallarining elastik xossalari anisotropiyasi”** xona haroratida 1 GHz chastotada silikat vismut kristallaridagi akustik to'lqinlarning tezligi va so'nish koeffitsiyentini o'lchash natijalari keltirilgan (1-jadval). Unda q va γ mos ravishda to'lqin vektori va akustik to'lqinning polarizatsiyasi.

Kristallarning elastik xossalari elastiklikning tenzori bilan tavsiflanadi, u haqiqiy va mavhum komponentalar orqali yoziladi:

$$C_{ijkl} = C'_{ijkl} + C''_{ijkl}, \quad (4)$$

Ushbu komponentalar effektiv elastik doimiylar $c_{\phi\phi}$ uchun ifodaga kiritilgan bo'lib, kristalldagi har qanday yo'nalish uchun mustaqil elastik doimiylar yordamida quyidagi formula yordamida osongina aniqlanadi:

$$c_{eff} = c'_{eff} + ic''_{eff} = c'_{ijkl}\kappa_j\kappa_l\gamma_i\gamma_k + ic''_{ijkl}\kappa_j\kappa_l\gamma_i\gamma_k, \quad (5)$$

(5) tenglamada $\kappa_{i,j}$ va $\gamma_{i,j}$ - to'lqin vektori va siljish vektorining yo'naltiruvchi kosinuslari. Bunday yondashuvda kristallda ixtiyoriy yo'nalish bo'ylab akustik to'lqinlarning tezligi va so'nish koeffitsiyenti quyidagi formulalar yordamida hisoblanadi:

$$V = \sqrt{\frac{c'_{eff}}{\rho}}, \quad (6)$$

$$\alpha = \frac{1}{2}\omega \frac{c''_{eff}}{\rho V^2} = \frac{1}{2}\omega \frac{c''_{eff}}{c'_{eff}}, \quad (7)$$

Bi₁₂SiO₂₀ kristallarida akustik to‘lqinlarning effektiv elastik doimiylari, tezligi V va so‘nish ko‘effitsiyenti α

q	γ	V, 10 ³ m/s	α , dB/ μ s	c'_{eff} , 10 ¹⁰ N·m ⁻²	c''_{eff} , 10 ⁷ N·m ⁻²
[100]	[100]	3.77	3.20	13.01	3.05
	[001]	1.63	1.00	2.43	0.18
[110]	[110]	3.38	3.80	10.45	2.91
	[110]	2,33	0.85	4.97	0.31
	[001]	1.74	1.20	2.77	0.24
[111]	[111]	3.28	4.10	9.86	2.96
	[110]	2.12	0.92	4.11	0.28

bu yerda ρ - zichlik, V va ω - mos ravishda akustik to‘lqin tezligi va aylanma chastotasi. (7) formulada so‘nish ko‘effitsiyenti kompleks effektiv elastik doimiyning haqiqiy va mavhum komponentalari orqali ifodalanadi.

Natijada, bu yo‘nalishlar bo‘yicha barcha effektiv elastik konstantalar va elastik modullar tenzorining mustaqil haqiqiy va mavhum komponentalari dielektrik va p‘yezoelektrik ko‘effitsiyentlarni hisobga olgan holda aniqlandi. Ushbu hisoblashlar natijalari 1-jadvalda ham keltirilgan.

Haqiqiy va mavhum doimiylarning olingan qiymatlari c'_{11} , c''_{11} , c'_{12} , c''_{12} , c'_{44} , c''_{44} va (6) va (7) formulalar asosida haqiqiy va mavhum effektiv elastik doimiylarning anizotropiyasi, shuningdek (001) kristallografik tekislikdagi silikat vismut kristallaridagi tezligi va so‘nish ko‘effitsiyenti ko‘rib chiqilgan. Hisoblashlar natijalari 1 va 2-rasmlarda keltirilgan.

Elastik anizotropiyaning ikki parametrini kiritish mumkin: ham haqiqiy elastik modullar $\Delta c'$ bo‘yicha, ham mavhum elastik modullar bo‘yicha $\Delta c''$:


$$\Delta c' = c'_{12} + 2c'_{44} - c'_{11} \quad (8)$$

$$\Delta c'' = c''_{12} + 2c''_{44} - c''_{11} \quad (9)$$

2-jadvalda ushbu anizotropiya parametrlarining Bi₁₂SiO₂₀ kristallari uchun hisoblangan qiymatlari keltirilgan bo‘lib, ular manfiy ishoraga ega.

2-jadvaldan [100] yo‘nalish bo‘ylab akustik to‘lqinlarning so‘nish ko‘effitsiyentining qiymatini bilgan holda bu qiymatni boshqa kristallografik yo‘nalishlar bo‘yicha hisoblash mumkinligi ko‘rinib turibdi.

Shunday qilib, elastik anizotropiya ishorasiga ko‘ra barcha kubik kristallar ikki turga bo‘linadi: musbat anizotropiyali (I toifa) kristallar va ikkinchi tartibli elastik modullarning manfiy anizotropiyasi (II toifa) bilan kristallar. Kub qirralari tekisliklari yoki diagonal tekisliklarida yotgan to‘lqin vektorlari uchun akustik to‘lqinlar tezligining burchakli bog‘liqligi tahlili shuni ko‘rsatdiki, silikat vismut va germanat kubik kristallari elastik modullarning manfiy anizotropiyali kristallarga (II toifaga) mansub.



1-rasm. Haqiqiy effektiv elastik doimiyning anizotropiyasi (a) va (001) tekislikda BSO kristallarida kvazibo‘ylama (1), kvaziko‘ndalang (3) va sof ko‘ndalang (2) to‘lqinlar (b)

2-jadval

Anizotropiya parametrlari orqali $\text{Bi}_{12}\text{SiO}_{20}$ kristallarida bo‘ylama (L) va ko‘ndalang (S) to‘lqinlarining so‘nish koeffitsiyentlari o‘rtasidagi nisbatlar

c'_{eff} uchun ifodalar	$c'_{eff}, 10^{10} \text{ N}\cdot\text{m}^{-2}$	$\alpha, \text{ dB}/\mu\text{s}$	$c''_{eff}, 10^6 \text{ N}\cdot\text{m}^{-2}$	Hisoblash formulasi
c_{11}	13.10	3.20	3.08	$\alpha_{100}^L = \frac{1}{2} \omega \frac{c''_{11}}{c'_{11}}$
c_{44}	2.45	1.01	0.18	$\alpha_{100}^S = \frac{1}{2} \omega \frac{c''_{44}}{c'_{44}}$
c_{12}	3.10		2.46	
$\frac{c_{11} + c_{12} + 2c_{44}}{2}$	10.55	3.90	2.95	$\alpha_{110}^{L_1} = \alpha_{100}^L \frac{(1 + \Delta c'' / 2c''_{11})}{(1 + \Delta c' / 2c'_{11})}$
$\frac{c_{11} - c_{12}}{2}$	5.00	0.93	0.31	$\alpha_{110}^{S_1} = \alpha_{100}^S \frac{(1 - \Delta c'' / 2c''_{44})}{(1 - \Delta c' / 2c'_{44})}$
$c_{44} + \frac{e_{14}^2}{\epsilon_0 \epsilon}$	2.79	1.31	0,25	$\alpha_{110}^{S_2} = \alpha_{100}^S \frac{1 + e_{14}^2 \text{tg} \delta / c'_{44} \epsilon \epsilon}{1 + e_{14}^2 \text{tg} \delta / c''_{44} \epsilon \epsilon}$
$\Delta c' = c'_{12} + 2c'_{44} - c'_{11}$	-4,10			
$\Delta c'' = c''_{12} + 2c''_{44} - c''_{11}$			-0,26	

Bunda bo‘ylama to‘lqinlarning tezligi [100] yo‘nalishda maksimal va [111] yo‘nalishda minimal bo‘ladi. Shu bilan birga, ko‘ndalang akustik to‘lqinlarning tezligi [110] yo‘nalishda maksimal va [100] yo‘nalishda minimal bo‘ladi. P’yezoelektrik ta’sirning ta’siri kvaziko‘ndalang to‘lqinlar tezligi anizotropiyasining biroz pasayishiga ta’sir qiladi, xolos.

Elastik modullarning tajribaviy va hisoblangan qiymatlari, $\text{Bi}_{12}\text{SiO}_{20}$ va $\text{Bi}_{12}\text{GeO}_{20}$ kristallari uchun anizotropiya parametri va akustik to'liqin tezligi 3-jadvalda ko'rsatilgan. Shuni ko'rish mumkinki, faqat bitta [100] yo'nalish bo'yicha bo'ylama va ko'ndalang to'liqinlarning tezligi haqidagi bilimlar ushbu tezliklarni boshqa yo'nalishlar bo'yicha aniqlash imkonini beradi.

3-jadval

Anizotropiya parametri ΔC orqali kubik kristallardagi akustik to'liqinlar $\text{Bi}_{12}\text{GeO}_{20}$ va $\text{Bi}_{12}\text{SiO}_{20}$ o'rtasidagi nisbat

C_{eff}	$C_{eff}, 10^{10} \text{N} \cdot \text{m}^{-2}$		Tezlikni hisoblash formulalari
	$\text{Bi}_{12}\text{GeO}_{20}$	$\text{Bi}_{12}\text{SiO}_{20}$	
C_{11}	12.8	13.10	$V_{[100]}^L = \sqrt{\frac{C_{11}}{\rho}}$
C_{44}	2.57	2.45	$V_{[100]}^S = \sqrt{\frac{C_{44}}{\rho}}$
$\frac{C_{11} + C_{12} + 2C_{44}}{2}$	10.4	10.55	$V_{[110]}^L = V_{[100]}^L \cdot \left(1 + \frac{\Delta C}{2C_{11}}\right)^{1/2}$
$\frac{C_{11} - C_{12}}{2}$	4.96	5.00	$V_{[110]}^{S_1} = V_{[100]}^S \cdot \left(1 - \frac{\Delta C}{2C_{44}}\right)^{1/2}$
$C_{44} + \frac{e_{14}^2}{\epsilon_0 \epsilon}$	2.85	2.79	$V_{[110]}^{S_2} = V_{[100]}^S \cdot$
$\frac{C_{11} + 2C_{12} + 4C_{44}}{3} + \frac{4e_{14}^2}{3\epsilon_0 \epsilon}$	9.98	10.15	$V_{[111]}^L = V_{[100]}^L \cdot \left(1 + \frac{\Delta C}{3C_{11}}\right)^{1/2}$
$\frac{C_{11} - C_{12} + C_{44}}{3}$	4.15	4.15	$V_{[111]}^S = V_{[100]}^S \cdot \left(1 - \frac{\Delta C}{3C_{44}}\right)^{1/2}$
$\Delta C = C_{12} + 2C_{44} - C_{11}$	-4,78	-5.10	

Germanat vismut kristallarida xona haroratida 1 GHz chastotada akustik to'liqinlarning tezligi va so'nish koeffitsiyentini o'lchash natijalari 4-jadvalda keltirilgan bo'lib, bunda q va γ mos ravishda akustik to'liqinning to'liqin vektori va polarizatsiyasi.

$\langle 110 \rangle$ o'qi bo'ylab p'yezofaol ko'ndalang to'liqinlar uchun p'yezoelektrik ta'siri ham haqiqiy c'_{44} va ham mavhum c''_{44} elastik doimiylarini "kuchaytiradi". Ushbu "kuchaytirilgan" doimiylar uchun formulalarga p'yezoelektrik modul e_{14} , dielektrik doimiy ϵ va dielektrik yo'qotish burchagi tangensi $tg \delta$ kiritiladi.

4-jadvalda berilgan elastiklikning tenzori haqiqiy va mavhum komponentalari yordamida har qanday kristallografik yo'nalish bo'ylab akustik to'liqinlarning tezligi va so'nishi qiymatlarini hisoblash mumkin. Simmetriya (001) va (110) tekisliklarida akustik to'liqinlarning $\text{Bi}_{12}\text{GeO}_{20}$ kristallardagi so'nishining hisoblangan yo'nalishi bog'liqliklari 2-rasmda ko'rsatilgan. Ko'rinib turibdiki, piezoelektrik ta'sir akustik to'liqinlar so'nishining anizotropiyasini o'zgartirmagan holda, p'yezofaol ko'ndalang to'liqinlari uchun ushbu anizotropiyani yuqori darajada kuchaytiradi.

4-jadval

Bi₁₂GeO₂₀ kristallarida akustik to‘lqinlarning effektiv elastik doimiylari, tezligi V va so‘nish ko‘effitsiyenti α

q	γ	c _{eff}	V, 10 ³ m/s	c' _{eff} , 10 ¹⁰ N·m ⁻²	α, dB/μs	c'' _{eff} , 10 ⁷ N·m ⁻²
[100]	[100]	c ₁₁	3.72	12.8	2.60	2.44
	[001]	c ₄₄	1.67	2.57	0.60	0.11
		c ₁₂		2.88		1.60
[110]	[110]	$\frac{c_{11} + c_{12} + 2c_{44}}{2}$	3.36	10.4	2.80	2.14
	[110]	$\frac{c_{11} - c_{12}}{2}$	2.32	4.96	1.17	0.42
	[001]	$c_{44} + \frac{e_{14}^2}{\epsilon_0 \epsilon} \text{tg} \delta^*$	1.76	2.85	1.90	0.40
[111]	[111]	$\frac{c_{11} + 2c_{12} + 4c_{44}}{3} + \frac{4e_{14}^2}{3\epsilon_0 \epsilon} \cdot \text{tg} \delta^*$	3.29	9.98	3.29	2.41
	[110]	$\frac{c_{11} - c_{12} + c_{44}}{3}$	2.12	4.15	1.05	0.32

* - $\text{tg} \delta$ ko‘paytiruvchi faqat mavhum elastik doimiylar formulalarida paydo bo‘ladi.

Silikat va germanat vismut kristallaridagi so‘nish anizotropiyasini solishtirish uchun hisoblash natijalari 3-rasmda akustik to‘lqinlarning so‘nishi xarakteristik tekisliklari kesimi ko‘rinishida (001) tekisligida ko‘rsatilgan.


Shuni ko‘rish mumkinki, BSO kristallaridan farqli o‘laroq, BGO kristallarida ko‘ndalang to‘lqinlar so‘nishining kuchli anizotropiyasi kuzatiladi. 4-jadvalda berilgan formulalarga ko‘ra silikat vismut va germanat vismut kristallari uchun [111] bo‘ylab bo‘ylama to‘lqinlar va [110] bo‘ylab sekin harakatlanuvchi to‘lqinlari p‘yezofaol hisoblanadi va ular uchun dielektrik yo‘qotishlarning so‘nishga qo‘shgan hissasini hisobga olish kerak. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, bu hissa p‘yezofaol ko‘ndalang to‘lqinlar uchun [110] bo‘ylab germanat vismut kristallarida eng muhim ahamiyatga ega.

Kubik kristallarda akustik to‘lqinlar tezligining anizotropiyasi xususiyatlari uchun A' - deb nomlanuvchi akustik anizotropiya parametri qo‘llaniladi, ushbu parametrni haqiqiy deb olamiz va u kubik kristallar uchun quyidagicha aniqlanadi:


$$A' = \frac{c'_{11} - c'_{12}}{2c'_{44}} = \left(\frac{V_{110}^S}{V_{001}^S} \right)^2 \quad (10)$$

Biz bu parametrga o‘xshash akustik anizotropiya mavhum parametri A''-ni kiritdik. Bu parametr mavhum elastik doimiylar orqali aniqlanadi:

$$A'' = \frac{c''_{11} - c''_{12}}{2c''_{44}} = \frac{\alpha_{110}^S}{\alpha_{001}^S} \left(\frac{V_{110}^S}{V_{001}^S} \right)^2 = \frac{\alpha_{110}^S}{\alpha_{001}^S} A' \quad (11)$$



2-rasm. (001) tekislikda (a) kvazibo‘ylama (1), kvaziko‘ndalang (3) va sof ko‘ndalang (2) va (110) tekislikda (b) germanat vismut kristallarida to‘lqinlarning so‘nishi koeffitsiyentining anizotropiyasi



3-rasm. BSO (a) va BGO (b) kristallarida (001) tekislikdagi kvazibo‘ylama (1), kvaziko‘ndalang (3) va sof ko‘ndalang (2) to‘lqinlar so‘nish koeffitsiyentining anizotropiyasi

Biz kiritgan formulalardan ko‘rinib turibdiki, akustik anizotropiyaning bu parametrlari anizotropiyaning darajasi va tabiatini, tezligini, kub kristallarida akustik to‘lqinlarning so‘nishini tahlil qilish imkoniyatini beradi. Shunday qilib, masalan, akustik anizotropiya A'' ning mavhum parametrini bilish, bo‘ylama akustik to‘lqinlarning eng kam darajada so‘nishi qayd etiladigan kristallografik yo‘nalishni oldindan taxmin qilish mumkin. Bunda $[110]$ yo‘nalish bo‘ylab faqat ikkita ko‘ndalang to‘lqinning so‘nish koeffitsiyenti va tezligini oldindan o‘lchash kifoya, (10) va (11) formulalardan ushbu parametrlarni hisoblash mumkin.

To‘rtinchi bobda **“Paratellurit kristallarning elastik xossalari anizotropiyasi”** TeO₂ kristallarida akustik to‘lqinlarning tezligi va so‘nishi anizotropiyasini o‘rganish natijalari keltirilgan. Ushbu bobning birinchi bo‘limida **“Tajriba natijalari”** 5-jadvalda akustik to‘lqinlarning tezlik va so‘nish ko‘effitsiyentining o‘lchangan qiymatlari, shuningdek paratellurit kristallarda effektiv elastik doimiylar uchun formulalar keltirilgan. Taqqoslash uchun 5-jadvalda bu xususiyatlarning so‘zma-so‘z qiymatlari ham ko‘rsatilgan. Olingan natijalar elastik modullarning murakkab tenzorining haqiqiy va mavhum komponentalarini hisoblash uchun ishlatilgan bo‘lib, uning yordamida keyinchalik har qanday ixtiyoriy yo‘nalish bo‘yicha akustik to‘lqinlarning tezligi va so‘nishi aniqlanadi.

5-jadval

Paratellurit kristallarda akustik to‘lqinlarning tezligi va so‘nish ko‘effitsiyenti, $v = 1 \text{ GHz}$, $T = 293 \text{ K}$

q	γ	c_{eff}	$V, 10^3 \text{ m/s}$		$\alpha, \text{ dB}/\mu\text{s}$	
			Eksp.	Liter.	Eksp.	Liter.
[100]	[100]	c_{11}	3.07	3.05	3.4	3.0
	[001]	c_{44}	2.09	2.10	0.9	
	[010]	c_{66}	3.31	3.32	2.8	
[001]	[001]	c_{33}	4.23	4.20	2.6	2.4
	[100]	c_{44}	2.08	2.10	0.9	1.0
[110]	[110]	$(c_{11}+c_{12}+2c_{66})/2$	4.56	4.66	2.5	
	[110]	$(c_{11}-c_{12})/2$	0.62	0.61	16.0	12.4
	[001]	c_{44}	2.08	2.10	0.8	

To‘rtinchi bobning ikkinchi **“Paratellurit kristallarda to‘lqinlarning tezligi va so‘nish ko‘effitsiyentining anizotropiyasi”** bo‘limida paratellurit kristallardagi akustik to‘lqinlarning tezligi va so‘nishi anizotropiyasidagi qonuniyatlarni o‘rganish natijalari keltirilgan. Hisoblashlar uchun akustik to‘lqinda energiyaning dissipatsiyasini hisobga oluvchi to‘lqin tenglamasi qo‘llanildi:

$$\rho \frac{\partial^2 u_i}{\partial t^2} = (c'_{ijkl} + ic''_{ijkl}) \frac{\partial^2 u_{kl}}{\partial x_j \partial x_l} \quad (12)$$

bu yerda u_i zarralarni ko‘chirish vektorining tarkibiy qismlari, u_{kl} – urg‘u tensorining tarkibiy qismlari, x_k – koordinatalar.

